

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA OLMOSH VA UNING MOHIYATI

Qosimjonova Farangiz Farid qizi

Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Ingliz tilida olmoshlar “Pronouns” deb atalib, ilmiy adabiyotlarda olmoshlarga turli ta’riflar berilgan. An’anaviy ingliz tilshunosligida olmoshlar ot yoki otlashgan so‘zlar o‘rnida qo‘llaniluvchi so‘zlar guruhi hisoblanadi. “Olmoshlar – bu ot o‘rnida qo‘llaniluvchi so‘zlar bo‘lib, matnda g‘alizlikning oldini oladi”¹ “Olmoshlar otlarga ishora qiluvchi so‘z yoki nutqning bir bo‘lagi hisoblanib, matnda otlarning o‘rinsiz takrorining oldini olishga xizmat qiladi”². “Ot va sifat so‘z turkumlari o‘rnida qo‘llaniluvchi so‘zlarga olmosh deyiladi”³.

Yuqorida keltirilgan izohlarga asoslanib aytishimiz mumkinki, ingliz tilida olmoshlar nihoyatda umumlashgan ma’noga ega: ular har qanday obyektlar, mavjudotlar, mavhum tushunchalarni ularni nomlamasdan turib ko‘rsatadi, ishora qiladi. Muayyan kontekstda, vaziyatda nutqning yuqori darajada umumlashgan qismi sanalsada, biroq alohida olinganda ma’no ifoda etmaydi. Olmosh - predmetlarni va ularning sifatlarini nomlamasdan ko‘rsatuvchi so‘z turkumi. Shuning uchun olmosh juda umumlashgan ma’noga ega bo‘lib, kontekstdan tashqarida deyarli ma’no anglatmaydi.

Ingliz tilida olmoshlardan foydalanish ko‘p hollarda anaforiklikni o‘z ichiga oladi, ya’ni bunda olmoshning ma’nosi oldingi gapga bog‘liq bo‘ladi. Misol uchun “That poor man looks as if he needs a new coat”, ma’nosi “O‘sha bechora kambag‘al odamga yangi palto juda ham zarurdek ko‘rinardi” gapida “personal pronoun”(kishilik olmoshi) sanalgan “He” o‘zidan oldin qo‘llangan “man” – “erkak” otiga ishora qilmoqda.

O.A. Морозова, А.М. Яхина o‘zlarining ingliz tilidagi olmoshlarni o‘rganishga qaratilgan tadqiqotida olmoshlarning vazifasi haqida to‘xtalib quyidagicha fikr bildiradi: “Olmoshlarning asosiy vazifasi ishoradir. Olmoshlar nominatsiyada faqat bilvosita ishtirok etadi, o‘zidan oldingi so‘zga qo‘shimcha ma’no yuklaydi, lekin o‘zi yangi ma’no ifodalamaydi”⁴

Ingliz tilida ham olmoshlarning yetakchi vazifalaridan biri pleonazmning oldini olish hisoblanadi. Olmoshlar tilda tejamkorlikni ta’minlovchi vosita bo‘lib, matn elementlarining o‘rinsiz takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslik, noqulay konstruktsiyalardan

¹ Alvin Nikolas “Use of Pronouns in Academic Writing”. Research prospect.2021.

² Swati Sharma “Parts of speech” 2020

³ M.G‘apporov, R.Qosimova “Ingliz tili grammatikasi”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent- 2010 –y. 158-b.

⁴ O.A. Морозова, А.М. Яхина “ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ ГРАММАТИКАСОВРЕМЕННОГО АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА”. Учебное пособие. Елабуга 2021

qochish va minimal vaqt ichida maksimal signalni uzatish imkonini beradi degan xulosaga kelishga imkon beradi. Matnning eng muhim funksiyalari reprezentativ, o‘rnini bosuvchi va deydiklik olmoshga xos sifatlardir.

O‘zbek tilida bo‘lganidek, ingliz tilida ham olmoshlar bilan bog‘liq chalkashliklar uchraydi. Olmosh otning o‘rnini egallaganligi sababli, ba‘zan gapda bir nechta ot yoki otlashgan so‘zlarning o‘rnida qo‘llangan olmoshlar ishtirok etadi. Ingliz tilida obyekt va subyektning yanglish tushunilishini bartaraf etish uchun har bir olmosh qaysi otga tegishli ekanligi aniq bo‘lishi talab etiladi. Shuning uchun olmoshlardan har doim ehtiyotkorlik bilan foydalanilishi kerak va o‘quvchilar uchun noaniq yoki chalkashlik keltirishi mumkin bo‘lgan har qanday holatdan qochish zaruriyati mavjud.

Ingliz tilida ham olmoshlar huddi o‘zbek tilidagidek, shaxs va sonda moslashadi. Masalan, “Men kecha singlim bilan futbol o‘ynadim” gapi o‘zbek tili grammatikasi qonuniyatlardan kelib chiqqan holda to‘g‘ri tuzilgan. Kishilik olmoshi “men” ega o‘laroq gapning kesimi bilan I shaxsda moslashgan va shu sababdan ham kesim I shaxs shakli “m” bilan ifodalangan. Endi ayni shu gapning ingliz tilidagi variantini ko‘rib chiqaylik: “I played futbol with my sister yesterday”. Bilamizki, ingliz tilida o‘zbek tilidan farqli o‘laroq shaxs-son shakllari gapning kesimida ifodalanmaydi (Ya‘ni, o‘zbek tilida “Men o‘ynadim”, “sen o‘ynading”, “U o‘ynadi” tarzida eganing o‘zgarishi bilan kesim tarkibidagi shaxs-son qo‘shimchalari ham gapning egasi (olmosh) ga mutanosib tarzda o‘zgarib boraveradi. Biroq ingliz tilida bunday holatda kesim barqaror holatda qolaveradi. Eganing almashinuvi kesimning formasiga ta‘sir qilmaydi). To‘ldiruvchi vazifasidagi “singlim bilan” birligi ot tarkibida I shaxs “im” shakli ifodalanganligi uchun o‘zbek tilida qaratqich kelishlikli kishilik olmoshi “mening” ni qo‘llashimizga ehtiyoj sezilmaydi. Ingliz tilida esa “with my sister” to‘ldiruvchisi ot orqali ifodalanganligi sabab kontekst so‘zlovchidan aniqlikni talab qiladi va bu aniqlik ega bilan moslashgan kishilik olmoshi va yoki ot bilan ifodalanuvchi qaratqich aniqlovchi orqali ta‘minlanadi. (1- jadvalga qarang).

O‘zbek tilida		Ingliz tilida	
Do‘stim	(Mening) do‘stim	Friend	My Friend
Do‘sting	(Sening) do‘sting	Friend	Your Friend
Do‘sti	(Uning) do‘sti	Friend	His/her Friend

Demak, ingliz tilida matn tarkibida kelganda olmoshlarning soni o‘zi o‘rnida qo‘llanilayotgan ot bilan quyidagi holatlarda mos bo‘lishi kerak:

- a) shaxsda (birinchi, ikkinchi, uchinchi)

- b) sonda (birlik va ko‘plik)
- d) holatda (mavzu, obyekt va b.)
- e) jinsda

Ma’lumki, o‘zbek tilida grammatik jins kategoriyasi mavjud emas. Ingliz tilida olmoshlarning o‘ziga xos jihatlaridan biri olmoshlarning o‘rnida qo‘llanilayotgan ot bilan jins jihatidan moslashishi kerakligidir. O‘zbek tilida “U” kishilik olmoshi jins tanlamaydi, ya’ni nutqda erkak va ayollar uchun baravar qo‘llaniladi. Ingliz tilida esa “U” kishilik olmoshi “He’ , “She” , “It” olmoshlari bilan ifodalanib, bunda “He” – erkaklar uchun, “She” ayollar uchun, “It” esa jonsiz predmetlar uchun. Masalan:

He likes dancing (gapning egasi erkak jinsida)

She likes dancing (ega ayol jinsida)

<i>Durdona</i> drives a car, his car is red	<i>Durdona</i> drives a car, her car is red
My <i>mother</i> has three brothers, all his siblings live in another city.	My <i>mother</i> has three brothers, all her siblings live in another city.
<i>Jaloliddin</i> drives a car, her car is black	<i>Jaloliddin</i> drives a car, his car is black
My <i>father</i> has three sisters, all her siblings live in another city	My <i>father</i> has three sisters, all his siblings live in another city.

Yuqoridagi jadvalning birinchi ustunida egalik olmoshlari noto‘g‘ri qo‘llangan gaplar , ikkinchi ustunida esa to‘g‘ri qo‘llangan gaplar berilgan. Ko‘rinib turganidek, matn tarkibida olmoshlar jinsda moslashmasa, mazmun yo‘qolishi va yoki butkul o‘zgarib ketishi mumkin. Agarda eganing jinsi ko‘satilmasa, ega erkak kishi yoki ayol kishi noaniq ekanligini ta’kidlash maqsadida “he”, “she” olmoshlari baravar qo‘llaniladi. Masalan: "A student must submit *his* or *her* thesis for an examination (talaba o‘z dissertatsiyasini imtihonga topshirishi kerak).

Ingliz tilida olmoshlardagi jins masalasi qator tadqiqotlarda ham o‘rganilgan. Rus tilshunos olimasi Nikolayeva Natalya Nikolayevna o‘z tadqiqotida aynan shu masalani yoritgan⁵ Dissertatsiya zamonaviy ingliz tili grammatikasida shaxs olmoshlari tizimi faoliyatidagi o‘zgarishlar va jarayonlar bilan bog‘liq muammolar majmuasiga, xususan, 3-shaxs olmoshlarini qo‘llashning gender aspekti muammolariga bag‘ishlangan. Ishning birinchi bobida 3-shaxs olmoshlarining o‘ziga xos xususiyatlari berilgan va ularning ko‘rsatish ma’nosi ochiqlangan, shuningdek, ularning deyktik tabiatiga to‘xtalib o‘tilgan.

Ikkinchi bob esa olmosh tizimining lingvistik islohotining tanqidiy tahliliga bag‘ishlangan.

⁵Николаева, Наталья Николаевна кандидат филологических наук. Гендерный аспект местоименной референции. ТемадиссертацииавторефератапоВАКРФ 10.02.19. 2008

Ingliz sotsiologiyasini tobora qamrab borayotgan feministik qarashlar “he, she, they” olmoshlarning metagender ishlatilishi eng qizg‘in bahs-munozaralarni keltirib chiqarganligi sababli, uchinchi bobda olmoshlarning diaxronik-qiyosiy tahlili berilgan. Olmosh tizimida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarning referentlar - erkak va ayol tomonidan idrok etilishi, kontseptsiyasi va turkumlanishiga ta’siri parallel ravishda tahlil qilingan holda, ularning gender o‘ziga xosligini aniqlash va an’anaviy yoki tenglik mafkurasiga sodiqligini ko‘rsatadigan lingvistik materialning parallel tahlili berilgan.

Buyuk Britaniyaning Manchester shahrida faoliyat yurituvchi “Pubrica akademiyasi” (Pubrica Academic and Scientific Medical and Regulatory Writing company) ning bir qator tadqiqotchilari, olmoshlarni tibbiyot sohasi doirasida tadqiq etishgan. Akademiyaning tilshunos olimlari hamda tibbiyot vakillari o‘zaro hamkorlikda olmoshlar ustida tadqiqot olib borishgan . Tadqiqot natijalariga tayanib olimlar shunday xulosaga kelishdi: “Olmoshlarni oddiygina otlarning o‘rnini bosuvchi ismlar sifatida belgilash xato, aslida olmosh murakkab so‘z turkumi. Ulardan foydalanishda ehtiyotkor bo‘lmaslik, bu noaniq olmosh havolasini yaratishi mumkin. Olmoshning almashinib kelayotgan so‘zlarini aniq belgilab olish juda muhimdir. Noto‘g‘ri berilgan olmoshlar o‘quvchini aralash jumla bilan chalkashtirib yuboradi. Ilmiy qo‘lyozma mualliflari olmoshlar ustida tadqiqot olib borayotganlarida nihoyatda ehtiyotkor bo‘lishlari shart. Olmoshlarning xameleyon tabiati tufayli katta bir tadqiqotning ma’nosi o‘zgarib ketishi va natijalarini xavf ostiga qo‘yishi mumkin. Oddiygina "This", "That" yoki "It " kabi ko‘rsatish olmoshlarini yanglish tushunish tuzatib bo‘lmaydigan zarar yetkazishi mumkin”⁶. Akademiya professorlari tibbiyot xodimlarini yuqorida keltirilgan olmoshlardan ziyraklik bilan foydalanishga chaqirishgan. Agarda "This", "That" yoki "It " noo‘rin qo‘llanilsa, katta ehtimollar bilan bemorlar hayotiga xavf solishi mumkinligini aniqlashgan.

⁶ “SentenceStructure: Pronounreference”. Pubrica knowledge works” November 9, 2019